Bu turdagi boshqotirg’ichlar kombinatorik deyiladi. Bunday boshqotirg’ichlarda elementlarning o’rnini almashtirish yo’li bilan ularni masala shartini qanoatlantiradigan tartibda joylash talab qilinadi. Dexqon yo’liqqan masalada daryodan o’tishni echkidan boshlash lozim. So’ng dexqon birinchi qirg’oqqa qaytib , bo’rini oladida , daryodan o’tadi . Bu qirg’oqda bo’rini qoldirib , o’zi bilan echkini birinchi qirg’oqqa qaytib olib o’tadi. So’ng uni shu yerda qoldirib , karamni bo’rining yoniga o’tqazadi. Nihoyat bir o’zi orqaga qaytib , echkini ya’na narigi qirg’oqqa olib o’tadi.

## 2.2 O'yin texnologiyarini amalga oshirish shart sharoitlari.

Pedagogik jarayonni tashkil etishning bir qator metodlari va usullari

hamda turli shakldagi pedagogik o'yinlar «o'yinli pedagogik texnologiyalar»ni tashkil etadi.

Tadbirkorlik o'yinlarini mashhur psixologlar L.S. Vigodskiy, A.N.Leontev, P.YA. Galperin va boshqalarning ishlarida nazariy asoslangan.

Tadbirkorlik o'yinlari o'z xarakteriga ko'ra insonning shaxsiy xislatlarini shakllantirishning amaldagi vositasi hisoblanadi.

Tadbirkorlik o'yini ijtimoiy-pedagogik tizim sifatida quyidagi tayyorgarlik bosqichlariga ega:

1.O'quv-bilish vazifalarini muammoli vaziyat topshirig'i shaklida qo'yish:

bo'lg'usi tadbirkorlik o'yinining maqsadini aniqlab olish;

muammoli vaziyatni anglab etish;

talabalarga navbatdagi tadbirkorlik o'yini haqida dastlabki ma'lumotlar berish;

2. Navbatdagi vazifani bajarish uchun zarur bo'lgan avval egallangan bilimlardan foydalanish:

talabalarning o'qituvchidan yoki adabiyotlarni tahlil qilish orqali yangi bilimlarni qabul qilib olishi;

bajarilishi lozim bo'lgan ish to'g'risida talabalarga yo'l-yo'riqlarni ko'rsatish;

olingan bilim, o'zlashtirilgan ilmiy tushunchalar va ishlash metodlarini umumlashtirish;

o'z-o'zini nazorat qilish;

3. Tadbirkorlik o'yinlarining shartlarini tushuntirish va vazifani bajarish uchun zarur bo'lgan yangi amaliy bilimlarning axborotini berish.

4. Navbatdagi ishni rejalashtirish:

ularga avval ma’lum bo’lganlar asosida uning ayrim bosqichlarini bajarish usullarini tanlash;

avval egallangan bilimlar asosida tushuntirish ishini olib borish va o’z ijodi uchun zarur bo’lgan yangi metodlarni qidirish;

rejalashtirishni mustaqil nazorat qilish.

O’yinning maqsadi – talabalarning bahs-munozara olib borish malakalari va qobiliyatlarini rivojlantirish va baholash.

Munozara – bahsning muammolari. Bahs-munozaraga olib chiqiladigan muammo talabalar uchun dolzarb va qiziqarli bo’lishi kerak.

Namuna tariqasida quyidagi savollarni qo’yish mumkin:

1. Mening ijodiy, raqobatbardoshlik shaxsiyatim g’oyasi qanday?

2. SHaxsning ijodiy, ziyolilik, raqobatbardoshlik xususiyati nimalarda ko’rinadi?

3. SHaxsning mustaqil rivojlanish jarayonini men qanday tasavvur qilaman?

4. Bozor iqtisodi munosabatlari sharoitida o’zimni qanda y unga bahshida qilaman?

O’yin ishtirokchilarining rollari va vazifalari.

Boshlovchi –o’qituvchi o’yinning ma’nosi, asosiy bosqichlari va ishtirokchilarning vazifalarini aytib beradi.

Ikki raqobatbardosh 7-10 kishidan iborat guruhlar yuqoridagi savollar bo’yicha munozaraga kirishadilar.

Boshlovchi-o’qituvchi o’yinni lozim topgan oqimga yo’llab turadi, uning a’zolari faolligini ta’minlab turadi, munozaraning to’g’riligini kuzatadi, unga yakun yasaydi.

Ekspert – talabalar munozara ishtirokchilariga baho beradi, guruhga va uning a’zolariga quyidagi me’yorlarga asoslangan holda baho qo’yadi:

a) ifodaning mantiqiyligi va asoslanganligi;

b) nutq madaniyati, notiqlik san’ati usullarini egallaganligi;

v) xulosalarning isbotliligi;

g) bahs usullaridan rang-barang va samarali foydalanishi;

d) savollar qo’ya olishi va b.

O’yin bosqichlari

Birinchi bosqich tashkiliy bosqichdir. Unda raqobatga kirishuvchi jamoalar va ekspertlar guruhi shakllantiriladi. O’qituvchi o’yinning maqsadi va qoidalarini bayon qilib beradi.

Ikkinchi bosqich o’yin jarayonidir. O’yin davomida jamoalar olishlari mumkin va unda munozarani kutilmagan darajada yangi o’ylash va topish imkoniyatiga ega bo’ladilar.

Uchinchi bosqich o’yinga yakun yasashdir. Bu bosqichda ekspertlarning har biriga o’z mulohazalarini bildirish uchun imkoniyat beriladi, ular esa o’z baholarining me’yorlarini hamda bahs-munozara ishtirokchilarining chiqishlari natijalarini asoslab beradilar.

Ekspertlar vazifasi: jamoaning g’alabasini asoslash;

a) o’yin ishtrokchilaridan eng xushmuomala; b) eng aqlli; v) eng obro’li; g) eng ijodkorlarini aniqlab beradi.

O’yin yakunida o’qituvchi o’yinni tahlil qilib beradi va yakun yasaydi. Ayniqsa, o’qituvchi o’yinning borishi, uning muvaffaqiyati va kamchiliklariga urg’u berishi lozim. SHuningdek, istiqbolda e’tibor berilishi kerak bo’lgan muvaffaqiyatli, munozarali, ijodiy vaziyatlarni farqlab berishi kerak.

O’quv o’yini o’quvchilarga qiyin muammoni hal qilishga yordam beradi, kuzatuvchi bo’lmaydi.

O’yinlar bilimlarni va faoliyat tajribalarini o’quv vaziyatidan xaqiqiy vaziyatga o’tkazish uchun potensial imkoniyat yaratadi. O’quv o’yinlari o’quv muxitini ta’minlaydi, bu muxit o’quvchilarning xarakatlariga zudlik bilan javob beradi.

O’yinga asoslangan o’quv jarayoni strukturasida to’rtta element bosqichlarini ajratish mumkin.

1)O’qituvchi o’rganiladigan mavzuni taqdim etadi. Unda foydalanadigan asosiy tasavvurlar b ilan tanishtiradi. Keyin esa immitasiyalar va o’yin qoidalari o’yinning umumiy borishini tasvirlaydi.

2) O’yinni o’rganishga tayyorgarlik. O’qituvchi ssenariyni bayon qiladi, bunda u o’yin masalalari, qoidalar, rollar, o’yin proseduralari, ballarni hisoblash qoidalariga alohida to’xtaladi.

3) Qatnashuvchilar orasida rollar taqsimlangandan so’ng o’yinni

qisqartirilgan varianti sinovdan o’tkaziladi.

4) O’yinni o’tkazish. O’qituvchi o’yinning borishini tashkillashtiradi, o’yinning xarakteristik natijalarini (ochkolarni, qabul qilingan qarorlarni qayd etadi. O’qituvchi o’yin tugagandan so’ng muhokamani olib boradi. Bunda u o’yin hodisalarining tavsifli xarakteristikasiga obzor berildi. Ularni o’quvchilar tomonidan qabul qilishi, ishchan o’yin jarayonida paydo bo’lgan qiyinchiliklar, o’quvchilarda tug’ilgan g’oyalar, ya’ni o’quvchilarni o’tkazilgan o’yinni faol tahlil qilishga undaydi.

Bunday imitasiya bilan unga mos real xayotdagi sohani taqqoslashga, o’yin mazmuni bilan o’quv kursi mazmuni orasida aloqa o’rnatishga katta e’tibor beriladi. Ishchan o’yinning muhokamasida o’yinni qayta ko’rib chiqish, unga tuzatmalar, o’zgartirishlar kiritish uchun takliflar to’planadi.

## *3. O’yin texnologiyalari asosida matematikani o’qitish metodikasi*

O’quvchilarning matematikaga bo’lgan qiziqishi , nafaqat darsning qanday tashkil qilinganligiga , qanday qiziqarli uslublardan foydalanganligiga balki darslarda hamma o’quvchilarning faol ishtirok etishiga ham bog’liq. Buning uchun albatta noananaviy usullardan va aqliy o’yinlardan foydalanishga to’g’ri keladi. Ish tajribalaridan kelib chiqqan holda shuni aytish joizki, o’yinlarni o’quvchilarning yoshiga bilim darajasiga qarab tanlash lozim. O’yin bu ijod , o’yin bu mehnat

O’yin davomida o’quvchilarda mustaqil o’ylash, fikrini bir joyga jamlash, diqqatni o’stirish , bilimga intilish kabi xususiyatlar rivojlanadi. Quyida shunday o’yinlarda bir nechtasini ko’rib o’tamiz.

## 1. Sexrli kvadratlar

Sexrli kvadratlar deb har bir qatordagi sonlar yig'indisi , har bir diogonaldagi sonlar yigindisi bir-biriga teng bo'lgan kvadrat jadvalga aytiladi, hamda bu sexrli yig'indi deb ham yuritiladi.

M:

| | |
|---|---|
| 2 | 2 |
| 2 | 2 |

| | | |
|---|---|---|
| 0 | 1 | 2 |
| 3 | 1 | -1 |
| 0 | 1 | 2 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 1 | 12 | 15 | 6 |
| 14 | 7 | 4 | 9 |
| 6 | 13 | 10 | 3 |
| 11 | 2 | 5 | 16 |

Sexrli kvatratdagi qatorlar va ustunlar sonini tartib raqamlar bilan belgilaymiz. Sexrli vadratlarni tuzish aniq ifodalangan o'yin xususiyatiga ega va o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otadi. O'qituvchi tomonidan sexrli kvadrat ichiga yozilayotgAN sonlar va ifodalar o'rganilayotga mavzuga bog'liq bo'ladi. 3- tartidagi sexrli kvadratni kuzatar ekanmiz , dioganalning kesishish nuqtasida joylashgan son ,sexrli yig'indining uchdan biriga teng. Bu xulosa 3-tartibdagi sexrli kvadratni quyidagi algoritmda tuzishga sharoit yaratadi.

1. 3-tartibdagi kvadrat jadvalining birinchi qator va ustundagi uchta erkin son yoziladi
2. Sexrli yig'indi S ni toppish
3. 1/3S ni toppish. Bu sonni sexrli kvadrat dioganalining kesishgan nuqtasiga yozish
4. Sexrli kvadratning qolgan sonlarini ham topish va yozish

## *2 "Musavvirlar musobaqasi"*

Sinf taxtasida bir nechta nuqtaning kordinatalari yozilgan bo'ladi. Masalan:

**O'yinning nomi**: ***«Telefon»***

**O'yinning turi:** Faollashtiruvchi

**Maqsad**: Insonlar orasidagi muloqot va bir odamdan ikkinchisiga ma'lumotlar qanday borishini ko'rsatish va o'quvchilarning qiziqishi darajasini oshirish

**Vaqti:** 10 daqiqa atrofida

**Guruh kattaligi**: Xohlagancha

**Ishlatiladigan materiallar**: Hech nima kerak emas.

O'quvchilar xonada doira shaklida turadilar. Bir o'quvchi yonida-giga shivirlagan holda biror-bir ma'lumotni aytadi. U esa ushbu ma'-lumotni keyingi shaxsga aytadi va bu ish doira bo'ylab davom etadi. Ma'lumot har bir kimsaga faqat bir martadangina aytilishi lozim. Oxirgi o'quvchi o'zi eshitgan ma'lumotni barchaga eshittirib aytadi va shundan so'ng uni boshda aytgan birinchi o'quvchi ham qaytaradi. Original va oxirgi ma'lumotlar orasidagi farq solishtiriladi va tahlil qilinadi.

**O‘yinning nomi**: ***«Sirli maktub»***

**O‘yinning turi:** Guruh bo‘lib ishlash

**Maqsad**: Bir-birini yaxshiroq bilib olish

**Guruh kattaligi**: Bir guruhda yoki sinfda

Ruchka va qog‘oz Orqali o’ynaladi

**Amalga oshirilishi**:

Har bir talaba o‘zi haqida biror-bir ma’lumotni yoki ma’lumotlarni qog‘ozga yozadi-da, uni bir idishga soladi (savat, yashik, shlapa va ho-kazolar). Keyin ular yaxshilab aralashtiriladi va talabalarga ulardan bit-tadan olish taklif qilinadi. Ular bu ma’lumotlarni o‘qib, uni kim yozga-nini aytishlari kerak. Bunda ko‘pchilik sinfdoshlar bir-birlari haqida yangi, oldin bilmagan qiziqarli narsalarni bilib olishga muvaffaq bo‘la-dilar.

***«Siz ajoyibsiz»*** o’yini

Mashg‘ulotlar oxirida o‘tkaziladi . Darsni yoki seminarni ijobiy-pozitiv ravishda yakunlash maqsadida ishlatish mumkin. Xohlagancha kattalikdagi guruh bilan o’tkazish mumkin Bu o’yinni o’ynash uchun Qog‘oz va ruchka kerak.
Har bir ishtirokchiga bittadan varaq tarqatilib chiqiladi va uning yuqori qismiga o‘z nomlarini yozishlari so‘raladi. Endi bu varaqlar do-ira shaklida joylashgan guruhga tarqatilib, har bir ishtirokchidan va-raqning yuqori qismida nomi yozilgan shaxs haqida yaxshi va ijobiy fikrlar yozilishi hamda uni keyingi talabaga uzatishi so‘raladi. Barcha o‘z fikrini yozib bo‘lganidan so‘ng, har bir varaq nomi yozilgan inson-ga qaytariladi. U esa o‘zi haqidagi yaxshi ma’lumotlarni o‘qib quvona-di va uni sinfdoshlaridan esdalik sifatida
saqlaydi.

Quyida keltiriladigan o‘zbekona boshqotirmalarni dars jarayonini

faollashtirish bilan bir qatorda o‘quvchi-talabalarning bilim darajasi, madaniyati va ma’naviyatini oshirish uchun ham ishlatish mumkin.

1. Bir donishmand o‘quvchilariga uch turdagi aynan bir xil qo‘-g‘irchoqni ko‘rsatibdi va ularning qandayligini o‘quvchilarga namo-yish qilibdi: birinchi qo‘g‘irchoqning qulog‘idan cho‘p tiqqan ekan, cho‘p uning ikkinchi qulog‘idan chiqibdi, ikkinchisining qulog‘iga tiqilgan cho‘p esa uning og‘zidan chiqib ketibdi va bu cho‘p uchinchi-sining esa ichiga tiqilib qolibdi.

**Savol: Qaysi qo‘g‘irchoq yaxshi va u nimani eslatadi? – do-nishmandning bu savolini sinfda muhokama qilib, xu-losa chiqarish foydadan xoli bo‘lmaydi.**

**O‘yinning nomi**: ***«Mashhur insonlar»***

**O‘yinning turi:** Kuchaytirgich

**Maqsad**: Darsni faollashtirish

**Guruh kattaligi**: Xohlagancha

**Ishlatiladigan materiallar**: Doska va bo‘r

**Amalga oshirilishi**:

1. Qatnashchilarga mashhur insonlar nomlarini doskaga yozish taklif qilinadi va xohlovchilar bu nomlarni doskaga chiqib yozadilar;

2. Keyin talabalar ichidan birortasini chaqirib, mashhur insonlar-dan birining kimligi, faoliyati haqida so‘raladi va u bu haqdagi ma’lu-motlarni barchaga aytib beradi;

3. Agar bu chaqirilgan talaba hech nima bilmasa, yoki kamroq bilsa sinfdagi boshqa xohlovchilarga bu haqdagi ma’lumotlarni to‘ldi-rish taklif qilinadi;

3. Shunday qilib, birin-ketin talabalarni doskaga chaqirgan holda mashhur insonlar va ularning nima uchun mashhurligi haqida bilib olinadi.

## *3.2 Darsdan tashqari matematik o'yinlar*

Sanoq sonlar suhbati

| **O'n— 10** | **Yigirma—20** |
|---|---|
| Biling o'n degan sonman | Derlar meni yigirma |
| Men ko'pman o'nta jonman | Tag'in tanimay yurma |
| Ikki qo'lda bor panja | Ikki o'nni qo'shganda |
| Qancha bo'lsa men shuncha | Paydo bo'laman shunda |
| Bilish qiyin emas hech | Ikki qo'l, ikki oyoq |
| Qoshilsa bas ikki besh | Sana yigirma barmoq |
| Garchand uzimku yoshman | Yigirma yosh bo'lar zo'r |
| O'nliklarga bosh qoshman | Akangdan bir so'rab ko'r |
| Yozilishim juda jo'n | Ikkining yonida nol |
| Biru nol bo'ladi o'n | Yigirma-da bilib qo'y |

**O'ttiz-30**

| | |
|---|---|
| Meni deydilar o'ttiz | O'ttizga kirgandir-a? |
| Yaxshi biling o'g'il, qiz | Uch yoniga nol qo'ysang |
| O'n bo'lsa gar uch joyda | O'ttiz bo'laman bilsang |
| O'sha yerda men paydo | Esda saqlash juda jo'n |

Oying, dadangdan so'ra

Biro y bo'lur o'ttiz kun

**Qirq—40**

Tanishaylik nomim qirq
Ishonmasang sanab chiq
To'rt joyda o'ndan jamman
Ancha katta raqamman
Ertaklarda bo'lar so'z
Qirq kecha-yu , qirq kunduz
Qirchillama qirq yoshda
El-yurt tashvishi boshda
Tanishib bo'ldikmi?soz:
To'rt yoniga nolni yoz

**Ellik—50**

Meni ellik deydilar
Feli kenglik, deydilar
Beshta o'nning jimiman
Yuzning rasa yarmiman
Ellik yil –yarim asr
Umrda bitta qasr
Ellik yosh juda katta
El ishi chun xizmatda
Yozishni bildingmi? Xo'sh
Besh yoniga nolni qo'sh

**Oltmish—60**

Oltmish degan nomim bor
Raqamlar ichra nomdor
Oltita o'n bo'lsa ham
Tayyor bo'laman men ham
Yaxshi bilish -chun bizni
Qo'ying ikki o'ttizni

**Yetmish—70**

Tanib ol nomim yetmish
Dovrug'im juda ketmish
Yettita o'n bo'laman
Ulug' yoshga to'laman
Kim so'rsa yetmish bahor
Balki uning baxti bor

Ko'rsang oltmish yoshli chol
Bobo degin bemalol
Oltining yonida nol
Oltmish bo'lar , ogoh bo'l

Ko'rsang yetmish yosh bobo
Tazim qilgin doimo
Osondir meni bitish
Yetti-yu nol-bu yetmish

**Sakson—80**

Men sakson degan sonman
Juda bobokalonman
Sakkista o'n o'g'lim bor
Soch, soqolim oppoq qor
Ikki qirqni ko'rganman
Dunyo kezib yurganman
Duch kelganda sakson yosh
Hurmat bilan eggin bosh
Meni yozish op-oson
Sakkiz bilan nol sakson

**To'qson—90**

To'qson deydilar meni
Ko'p son deydilar meni
Bexisob og'il qizim
Bordir o'nta to'qqizim
Ko'p mo'ysafid raqamman
Yuzdan ozgina kamman
Ulug'man xullas, kalom
Ko'rgan deydi: "Assalom"
To'qqizu-nol to'qsonman
Juda tabarruk sonman

**Yuz—100**

Bilib ol ey qorako'z
Ro'parrangda menman yuz
Sonlar ichra ko'p yirik

**Ming—1000**

Ming degan yirik sonman
O'nta yuzman ser jonman
Mingliklarning boshiman

O'nta o'n, ikki ellik
Kimning bo'lsa ishi yuz
Doim unda yorug' yuz
Yuz yosh --bir asr demak
Katta baxt yuzga kirmoq
Yozishni mashq qil bir oz
Bir va ikki nol xolos

O'n minglarning yoshiman
Yuztam bo'ladi yuzming
Ko'p qadim tarixga teng
So'ng bo'laman million
Cheksizdir olam va son
Bilib olgin , iltimos
Birga uch nol qo'shsang bas

**Bittasi:**

Bu suxbat xullas kalom
Xozircha bo'ldi tamom
Amo sonlar cheksizdir
OLam kabi tengsizdir
Ko'kda yulduzlarga boq
Koinotda ko'p jumboq

Topayin desang javob
Kerakdir ilmi hisob
Dunyoda ulug' inson

**Hammasi:**

Xizmatdadir sanoq son

Bu sanoq sonlar suhbati matematika darslaridan tashqari o'yin hisoblanadi. Bundan matematik kechalarda yoki matematik tadbirlarda foydalansa bo'ladi.

*1. Suvli tegirmon.*

Bu o'yinda o'quvchilar ikki guruhga bo'linib, suvli tegirmondagi misollarni yecha boshlaydilar. Misollarning javoblari tegirmonning oyoqlari xisoblanadi. Javoblar to'g'ri topilsa tegirmon turadi, noto'g'ri bo'lsa tegirmon yiqiladi



## *2. Charxpalak o'yini*

Bu o'yinni "Natural" sonlarni, kasrlarni ko'paytirish va bo'lishda o'tkazish mumkin.

Charxpalakni turtib yuborasiz to'xtashini kutasiz va ikki qatordagi sonlarning mos kelganlarini amallar bilan yechiladi. Guruhchalardagi o'quvchilar soniga qarab, misol qo'yiladi. Har bir o'quvchi bittadan misol yechadi va javoblarni to'plab aytadilar.



### 3. *Zinama-zina o'yini.*

O'quvchilar 3-4 guruhlarga ajratiladi. O'yinni juda ko'p mavzularda qo'llash mumkin. Bu o'yinda misollar zinapoyalarga yoziladi. Javoblari zinapoya asosida yozilgan bo'ladi. O'quvchilar misollarni yechib zinapoyalardan ko'tarib tushadilar. Javoblar misollarga nisbatan ko'proq yoziladi



*4. Daladan o'rmonga o'yini.*

Bu o'yin koordinatalar sistemasi mavzusida qo'llash mumkin.

Bu o'yinda baholanadigan 10ta o'quvchi chaqiriladi va qura tashlanib ikki guruhga bo'linadi.

*1 – guruh Quyonlar.*
*2 – guruh Ovchilar.*

O'yinni boshlaysiz. Quyonlardan bir kishi, Ovchilardan bir kishi chaqiriladi. Quyonlar sakragan joylarni ovchilar koordinatalarini ayta olmasalar ovi baroridan kelmasalar, o'yin davom etib, quyon o'rmonga qochib ketishi kerak, tezroq qochib ketgan quyonga mohir ovchilarga baho qo'yiladi.



### *5. Rassomlar bellashuvi.*

Bu o'yinda koordinatalarni to'g'iri belgilashda ishlatish mumkin. Hariflarning koordinatalarini beramiz va bir – biriga ulab chizadilar to'g'ri chizgan o'quvchilar rassomlardir.




Tashqi ko'rinishi uchun koordinata. (0;5), (2;4), (3;6), (3;4), (4;0), (2;-3), (0;-4), (2;-3), (-4;0), (-3;4), (-3;6), (-2;4), (0;5) ulaydi ko'zi uchun nuqta (1,5;2,5), ((-1,5):2,5)

| | | |
|---|---|---|
| ***Mo'ylov uchun.*** | (-2;0), (-5;2) | (2;0), (5;2) |
| | (-2;0), (-5;0) | (2;0), (5;0) |
| | (-2;0), (-5;-2) | (2;0), (5;-2) |
| ***Og'zi uchun:*** | (-1;-2), (1;-2) | |

### *6. Kim chaqqon.*

Bu o'yini juda ko'p mavzularda qo'llaniladi, Ayniqsa musbat va manfiy sonlar ustida amallarda qo'llash mumkin. Birinchi rasmda nuqta qo'yilgan sonlarni amaliga qarab misol yechiladi. Ikkinchi rasmda guldagi misollar bargdagi misollarga amallab qo'llab yechiladi.

| + | -4 | -3 | -2 | -1 | 0 | 1 | 2 | 3 | 4 |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 3 | | | | | • | | | | |
| 2 | • | | | | | | | | |
| 1 | | | | • | | | | | |
| 0 | | | • | | | | | | |
| -1 | | | | | | • | | | |
| -2 | | | | | | | • | | |
| -3 | | • | | | | | | | |



*7. **Raketaga kim oldin o'tiradi.***

Bu o'yinda 5 o'quvchi birdan echadilar ikkala tomondagi raketadagi misollarni echib echib keyin raketaga o'tiladi. O'tirish safiga qarab baholanadi.



## *8. Iqtidor.*

Bu o’yinni juda ko’p mavzularda qo’llash mumkin. Ikki guruhga ajratib savollar “Tashlaysiz” teledasturdagi iqtidor o’yinidan foydalanasiz.

***Savollar.***

1. Viyet teoremasini ayting.

2. . Viyet teoremasiga ko’ra eching.

$x^2$-11x+30=0

3. x2-19x+18=0 tenglamaning ildizlardan biri 1 ga teng. Uning ikkinchi ildizini toping.

4. Skanvordni eching.

| | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | **V** | | | | | | | |
| | | | | **I** | | | | | | | |
| | | | | **Y** | | | | | | | |
| | | | | **E** | | | | | | | |
| | | | | **T** | | | | | | | |

*1. Aylana elementi.*

*2. Uchburchak burchaklarining nomi.*

*3. Qo'shiluvchilar natijasi.*

*4. Uchburchak tomoni.*

*5. Noma'lum qatnashgan ifoda.*

5. Ildizlari $x_1$ va $x_2$ bo'lgan keltirilgan kvadrat tenglamani yozing.

$x_1=3$ $x_2=-1$

6. Viyet teoremasiga asosan eching.

$x^2 + 3x - 4 = 0$

***9.Qilni qirq yorib.***

Har xil mavzuda qo'llash mumkin. O'quvchilar guruhchalarga bo'linadilar va hammasi sinfda o'tiladilar. Osonroq savol sinfga tashlanadi va qaysi o'quvchi javob bersa shu o'quvchining guruhi o'yinga chiqadi. Savol aytiladi, guruh javob bersa joyida qoladi. Aks holda sinfdagi joyida o'tiladi. Shunday o'yin davom etadi.

*10. Mergan.*

Koordinatalar sistemasi mavzusida qo'llash mumkin. 5-6-o'quvchilar chiqadilar kordinatalar sistemasida oylar, kubiklar, quyoshlar rasmlari qo'yilgan.

*Oy* - *3 ball.*

*Kubik* - *2 ball.*

*Quyosh* - *5 ball.*

O'quvchilar narsalarning koordinatlarni to'g'ri aytsalar narsasining ballari qo'shib boriladi. O'yin narsalar tugaguncha o'ynaladi. Ballarga qarab baholanadi.



## XULOSA.

Bu texnologiyalarning asosiy samaradorlik tarafi shundaki : o’qituvchidan alohida bilim talab qilinmaydi,ta’lim berish jarayonida o’yin texnologiyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki o’yin texnologiyasidan foydalanib dars o’tish darsning qiziqarli va samarali bo’lishini taminlaydi. Darsda o’yin texnologiyasidan foydalanilganda o’quvchilar darsni katta e’tibor va qiziqish bilan tinglaydilar va o’zlari ham bu jarayonda bevosita ishtirok etadilar. Bunda ular olingan bilimlarni xotirada yaxshi saqlab qolish bilan birgalikda jamoada ishlashni ham o’rganadilar. Darsdan tashqari matematik o’yinlar esa bo’sh vaqtlarni samarali o’tkazish bilan bir qatorda o’quvchiyoshlarning mantiqiy tafakkurini ham rivojlantirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Dars davomida o’yin texnologiyasidan to’g’ri foydalanmaslik vaqt taqsimotida turli kamchiliklarni keltirib chiqarishga sabab bo’ladi.

## *Mavzuga oid so'zlar lug'ati*

| O'zbekcha | Ruscha | Inglizcha |
|---|---|---|
| Ta'lim | Образование | Education |
| Pedagog | Педагог | Teacher |
| Texnologiya | Технология | Technology |
| Mahorat | Мастерство | Skill |
| Yuksak mahorat | Высшее мастерство | The highest skill |
| O'qitish texnologiyasi | Технология обучения | Technology of training |
| Pedagogik texnologiya | Педагогическая технология | Pedagogical technologiya |
| Metodika | Методика | Technique |
| Faoliyat | Деятельность | Activity |
| Shakllantirish | Формирование | Formation |
| Bilim | Знание | Knovledge |
| Axloq | поведение | Behavior |
| Ta'lim metodikasi | Методика образования | Education technique |
| Tarbiya maqsadi | Цель воспитания | Education purpose |
| O'quv jarayoni | Учебный процесс | Educational process |
| Texnik vosita | Технические средства | Technical means |
| O'yin texnologiyasi | Технология игры | Technology of game |
| Matamatik o'yinlar | Математические игры | Mathematical games |
| Qiziqarli masalalar | Интересные задачи | Imteresting tasks |
| Matematikani o'qitish metodikasi | Методика обучения математики | Technique of training in mathematics |
| O'yin | Игры | Game |
| Ijod | Творчество | Creativity |
| Darsni faollashtirish | Активизировать урок | To make active a lesson |
| Maqsad | Цель | Purpose |

| | | |
|---|---|---|
| Matematik kechalar | Математические вечера | Mathematical evenings |
| Matematik tadbirlar | Математические мероприятия | Mathematical actions |
| Texnologiya tasnifi | Классификация технологии | Technology classification |
| Tushuncha | Понятие | Consept |
| Ta'lim jarayoni | Образовательный процесс | Educational process |
| O'quvchi | Ученик | Pupil |
| O'qituvchi | Учитель | Teacher |
| Metod | Метод | Method |
| Tajriba | Опыт | Experience |
| Savol- javob | Вопрос-ответ | Question-answer |
| Bilim olish | Обучение получать знание | Training to gain knowledge |
| Mashg'ulot | Занятие | Accupation |
| O'quv faoliyati | Деятельность ученика | Activity of the pupil |
| Uyga vazifa | Домашнее задание | Homework |
| Pedagogika nazariyasi | Теория педагогики | Pedagogic theory |
| Zamonaviy ta'lim | Современное обучение | Modern training |
| Pedagogic jarayon | Педагогический процесс | Pedagogical process |

# Foydalanilga adabiyotlar ro'yhati:

1. M.R.Sobirova, M.R.Tursunova "Yangi texnogiya bo'yicha matematika fanida noananaviy dars o'tish metodikasi " Termiz-2006 yil

2. D.Bekmurodov, S. Jo'raqulova "Matematik o'yinlar"

3. SH.K. SHAYAKUBOV, R.X. AYUPOV INTERFAOL TA'LIM USULLARI Toshkent moliya institute.

4 Yosh matematik qomusiy lug'ati

5 R. Tursunov S.To'rayev "O'quv prosesida matematikadan control ishlarini ahamiyati va uni o'tkaish metodikasi" Termi 1988y

6 Respublika ilmiy va ilmiy-metodik konferensiya materiallari to'plami 2010-yil 12-13-mart

7.Boltayeva G "Pifagor va uning ajoyib teoremasi" Toshkent 1988 yil

8.rxx1961.zn.uz/files/2011/01/ped_tex_metodichka.pdf 6

9.referatlar.uz/load/kitoblar_knigi/prezident_asarlari

10.ziyonet.uz/uzl/library/libid/40900

11.docsfiles.com

12.www.readbag.com

13.uz.denemetr.com/docs/769/index

14.school307.uz/non/publications/79

15.oldcss.ru/matematik-test-o-zbek.php

16.referat.arxiv.uz/files/53589_

17.uz.denemetr.com/docs/769/index

18.namdu.uz/index.php/uz/

19.uz.wikipedia.org/wiki

20.www.titli.uz/index.php/ru/axborot-resurslari1/list-alpha/m/3.html

21.www.pdftop.com

# MUNDARIJA:

**Kirish……………………………………………………… 3**

1. **Pedagogik texnologiyalar**
   1.1 Pedagogik texnologiya tushunchasi………………5

   1.2 Pedagogik texnologiyalar tasnifi…………………..6

2. **O’yin texnologiyalari**

   2.1 O’yin texnologiyalari tasnifi………………………13

   2.2 O’yin texnologiyalarini amalga oshirish shart-sharoitlari….16

3. **O’yin texnologiyalari asosida matematikani o’qitish metodikasi**

   3.1 Matematika darslarida o’yin metodlari…………..19

4. **Darsdan tashqari matematik o’yinlar**
   Xulosa …………………………………………………….46
   Lug’at………………………………………………………47
   Foydalanilgan adabiyotlar………………………………..49